

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
O‘SIMLIKSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN O‘SIMLIKSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida O‘simlikshunoslik fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Paxtachilik

- 1.O‘simlikshunoslikning nazariy asoslari
- 2.Donli va dukkakli don ekinlari
- 3.Yem-xashak o‘tlar
- 4.Tuganakmevalilar va ildizmevalilar
- 5.Moyli ekinlar
- 6.Tolali o‘simliklar
- 7.Narkotik ekinlar

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	O‘simlikshunoslikning nazariy asoslari	O‘simliklarning kelib chiqishi, sistematikasi, yovvoyi va madaniy turlari, kenja turlari haqida ma‘lumotlar, dala ekinlarining ahamiyati, tarqalishi, hosil sifatiga nav va yetishtirish sharoitining ta‘sirini bilishi, o‘g‘itlash tizimining biologik asoslari, ekinlarning fotosintetik faoliyatini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.	4 ta
2	Donli va dukkakli ekinlari	Donli va dukkali don ekinlarining tashqi tuzilishi, morfologiyasi, o‘simlikning generativ va vegetativ organlarini, ildizi, poyasi, bargi, gul to‘plami, mevasi va urug‘i to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, donli va dukkali don ekinlarining biologik xususiyatlari – issiqlikka bo‘lgan talabi, namga bo‘lgan talabi, tuproqqa bo‘lgan talabi va ozuqa moddalarga bo‘lgan talabini tahlil qilish. Donli va dukkakli don ekinlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosil organlarining shakllanish qonuniyatlari va yetishtirish texnologiyasi to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	12 ta
3	Yem-xashak o‘tlar	Yem-xashak o‘tlar guruhleri, to‘yimliliigi, sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi- issiqlikka, namlikka, yorug‘likka, ozuqaga, tuproqqa talabi, Qo‘ng‘irboshli va dukkakli yem-xashak o‘tlarning o‘sishi va rivojlanishi, navlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Yem-xashak o‘tlarning yetishtirish texnologiyasi – almashlab ekishdagi o‘rni, yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish usuli va me‘yori, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishni va bu o‘tlarni urug‘ini sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	6 ta
4	Tuganakmevalilar va ildizmevalilar	Tuganakmevalilar va ildizmevali ekinlarning ahamiyati, tarqalishi, sistematikasi, morfologik belgilari, biologiyasi- issiqlikka, namlikka, yorug‘likka, ozuqaga, tuproqqa bo‘lgan talabi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish Tuganakmevalilar va ildizmevali ekinlarning	5 ta

		rivojlanish fazalari, yetishtirish texnologiyasi – almashlab ekishdagi o‘rni , yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish usuli va me‘yori, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishni va bu ekinlarining urug‘ini sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	
5	Moyli ekinlar	Moyli ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, ahamiyati, sistematikasi, morfologiyasini bilishi, moyli ekinlarning yetishtirish texnologiyasi – almashlab ekishdagi o‘rni , yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish usuli va me‘yori, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishni va bu ekinlarining nav tavsiflarini tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	6 ta
6	Tolali o‘simliklar	Tolali o‘simliklarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, sistematikasi, morfologiyasi-ildizi, poyasi, bargi, gulto‘plami, mevasi haqida bilishi, tolali o‘simliklarning yetishtirish texnologiyasi – almashlab ekishdagi o‘rni , yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish usuli va me‘yori, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishni va bu ekinlarining rivojlanish fazalarini tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	5ta
7	Narkotik ekinlar	Narkotik ekinlar xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, sistematikasi, morfologiyasi-ildizi, poyasi, bargi, gulto‘plami, mevasi haqida bilishi, Narkotik ekinlarning yetishtirish texnologiyasi – almashlab ekishdagi o‘rni , yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, ekish muddati, ekish usuli va me‘yori, parvarish qilish va yig‘ishtirib olishni va bu ekinlarining rivojlanish fazalarini tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	2ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018.

2. Atabayeva X.N., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006.

3. Atabaeva Kh.N., Xudaykulov J.B., Nurbekov A.I., Kassam A. Plant Science. Textbook. Tashkent, "Fan ziyosi", 2021 y.

4. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rastenievodstvo. Uchebnik. Tashkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

5. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rastenievodstvo. Uchebnik. Tashkent, TashGAU “Taxririyat-nashriät”, 2015.

6. Oripov R., Xalilov N. O‘simlikshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2006.

7. Умарова Н.С. Растениеводство. Учебное пособие. Ташкент, “Инновация-Зиё”, 2023.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*